

## KASBI TUMANIDA RIVOJLANAYOTGAN ZIYORAT TURIZMI

*Davronova Nargiza*

*Qarshi davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanijoylashgan muqaddas tarixiy madaniy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan turizmga boy ziyoratgohlardan biri bo'lgan Hazrati Sulton haqida bayon qilingan. Turistik saohiyatni rivojlantirish, infratuzilma va xizmat ko'rsatish bo'yicha takliflar ma'lumotlar berilgan.*

Mamlakatimizda juda ham ko'p muqaddas qadamjolar, tarixiy meroslar va turizmga boy maqbara va masjidlarga ega. Shu muqaddas qadamjolaridan biri Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanida joylashgan muqaddas turizmga boy HAZRATI SULTON ziyoratgohi mahalliy va respublikamizning hamma viloyatidan ziyoratchilar tashrif buyuradigan mashhur qadamjo sifatida tanilgan.

Sulton Mir Haydar ziyoratgohi Kasbi tumani Kasbi qishlog'ida joylashgan. Mir Haydar otaning asl ismi Amir Shamsiddin Mir Haydar Ali Xoja Haydar Xurosoniy (1275\1365) bo'lib, avval Xuroson Qoyim, Makkada, so'ng Misr shahrida tahsil olgan. 14 yoshida imom maqomiga erishib, fiqh, hadis, Qur'on va din ilmi sohibi, olim bo'lganlar. Kasbi tumanida din ilmi sohibi Sulton Mir Haydar (1275-1365) nomi bilan bog'liq yodgorlik majmui qad rostlagan. Mahalliy aholining qayd etishicha, dastlab olim o'zi tug'ilgan manzilda, Kasbida dafn etilgan, biroq turli sabablar bilan ikki marta hoki boshqa joyga ko'chirilgan Polvoni Ahmad Xorazmiy nomi qayd etiladi, keyingi yillarda olimning hoki yana qayta olib kelinib Kasbida dafn etilgan. Amir Shamsiddin Mir Haydar Ali Xoja Haydar Xurosoniyning hayoti to'g'risida ma'lumot keltiriladiki, hali dunyoga kelmay turib ilohiy bashorat ila Hoja Shamsiddin haqida Hakim ota Sulaymon bashorat qilganlar. 673 hijriy-qamariy Ramazon oyining o'ninchi kuni subhi tong mahali (1275 milodiy) Jamoliddin Shayx Hazratining uylarida Mohinurbibi onamizning dardlari kuchaydi. Ovsinlari Sokinoyinurni doyani chaqirib kelishga yubordi... To'rtinchi farzand dunyoga keldi. U ul aziz inson Xurosonning Qoyim shahri Sho'rdaryo bo'yida dunyoga keldilar. Xoja Sayyid Jaloliddin o'z farzandini ukasi Sayyid Muhammad Abdullohga farzandlikka beradi. Sayyid Muhammadning farzandi bo'lmagan va Xoja Shamsiddinni tarbiya qilgach o'zlari ham farzandli bo'lgan. Xoja Shamsiddin zehnlilik bo'lib, yetti qiroat Qur'on qorisi Shayx Jaloliddin Qo'qoniy unga saboq berdi. Ul zot asli Qo'qon shahridan bo'lib, forsiy, arabiy tilda ravon so'zlar edi va o'z yurtida fitna dastidan Sho'rdaryo bo'yiga kelib qolgan edi. Sohibkaromat Mir Haydar ota asli hazrat Ali va Bibi Fotima onamizning imom Husayn avlodidan bo'lgan

yetuk olim va olim inson edilar. U kishi Buxoroda Sayyid Amir Kulol Xojadan ham haqiqatga yetmoqlikdan saboq olganlar.

Amir Shamsiddin Mir Haydar Ali Xoja Haydar Xurosoniy Xorazmda 30 yoshda, 31 yoshda Buxoroda, 32 yoshda esa Kasbida manzil topganlar. Mir Haydar otaning tavallud yilini hijriy 673, milodiy 1275 yili deb qabul qiladigan bo'lsak, u zot hijriy 766, milodiy 1365 yilda vafot etganligi sanasini aniqligiga ko'ra 90 yil umr ko'rgan bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, olim hoki qayta hozirgi Kasbida dafn qilingan. Olim L.Yu.Mankovskaya XX asrning 50-yillarida Sulton Mir Haydar majmuasi qarovsiz qoldirilgani va omborga aylantirilganini aytishga jur'at topa olgan. Sulton Mir Haydar ota majmuasi haqida dastlabki tadqiqotlarni S.K.Kabanov, 1960-yillarning boshlarida R.R.Abdurasulov, L.I.Rempel, 1970 yillarda L.Yu.Mankovskaya, A.Z.Zayniddinov e'lon qilgan. 1989 yilning yanvaridan maqbarani tartibga keltirish, esdalik lavhini qo'yish ishlari amalga oshirilgan. Masjid va minora yo'laklari tuproqdan tozalanish davrida turli tarixiy osori atiqalar topilgan. Arxiv hujjatlarida vohadagi boshqa me'morchilik obidalariga nisbatan mazkur yodgorlik o'tgan asrning 70-80-yillarida arxeologik va me'morchilik nuqtai nazaridan keng o'rganilganligi ko'rsatiladi. Sulton Mir Haydar nomi bilan ataluvchi obida turli davrlarda qurib bitkazilgan uch guruh binolarni o'z ichiga oladi, ular: XIV asr dahmalari, XV asr qabrtoshlari, XVI asr masjid binosidan iborat.

Mazkur tarixiy-me'moriy yodgorlik ansambli XI-XVI asrlarda barpo qilingan. Yodgorlikning umumiy maydoni atrofidagi qabristonlar bilan birga 166,4 gektardan iborat. Uning yonidagi tepalik esa, "Kasbi qo'rg'oni" deb atalib, 2,8 gektarni tashkil qiladi. Bu ansambl atrofida Sulton Mir Haydar maqbarasi, uch gumbazli maqbara, chillaxona, Said Mir Mo'min Samarqandiy qabri, ayvon, minora, qishki va yozgi masjidlar, hayit namozi o'qiladigan namozgoh tarixiy yodgorligi, ikkita yopiq va bitta ochiq sardobalar mavjud. Yer ostidan topilgan sardoba Qoraxoniylar davriga mansub bo'lib, VII-IX asrlarda qurilganligi aniqlangan. Xususan, XI-XIV asrlardagi maqbaralarning yog'ochli gruppasi uch binodan iborat bo'lgan. Bunda ikki dahma oldidagi yo'lakcha xizmatini bajaradigan o'tish yo'li eng kichkinasi hisoblanadi. Bu joyda ziyoratxona kichik, shu boisdan ham uning qatorida, chamasi, XVI asrda markaziy hovli g'arb tarafida yozgi masjid-ayvon qad ko'targan. Ziyoratxona bilan bir necha daxmani birlashtiradigan dahlizli yagona bino XI-XVI asrlardagi maqbara qurilishlarida ma'lum edi. Binolarning qurilish uslubi o'zgarganligi sababli, XIV asrning ikkinchi yarmida kompozitsion ko'rinishi takomillashdi.

Kasbidagi maqbaralar arxitekturasida Pudina va Qovchindagi maqbaralarning allaqachon bizga tanish bo'lgan shakli va detallari turli variantlarda ko'zga tashlanadi; bunda pastki chor qirraliklar ravoq qanoslarining qatlaridan tikka qilib ajratib qo'yilgan; devorlarida kichik mehrobiy uchtadan tokcha yasab hatto ular oralig'ida chiroqlar uchun tutun yo'li ham qilingan. Ravoqlarning burchak qo'ltiqlarida mayda

kosali muqarnaslar bor, bu uslub XIV asrning birinchi yarmiga xosdir. Mayda yassi g'ishtlarga ko'ra, ular ancha oldingi davrda qurilgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Birinchi maqbara Said Amir Shamsiddinbek al Hoji Haydarniki bo'lib, qabr ustiga qo'yilgan to'q kulrang marmar sag'anada uning hijriy 897 yilda (1491) yilda) qo'yilganligi bitib qo'yilgan. O'rtadagi hovlining sharqiy tomonida alohida turgan maqbara ham, chamasi, XIV asrning boshlariga oid bo'lsa kerak. Qishki masjid mustaqil ravishda hovlining janubiy tomonidan dahma bostirmasiga tutashtirib qurilgan. Qalqonsimon yirik qanosi, ravoqlarning tartibsizligi, g'isht devor va shuvog'ining pala-partishligi bu masjid ancha keyinroq XIII-XIX asrlarda barpo etilganligini bildiradi. Binoning o'rta qismi keng hamda fasadi bo'ylab yassi peshtoq va orqa tomondan to'g'ri burchagi turtib chiqarilib qo'yilgan. Pastakkina gumbaz yassi qalqonsimon qanoslar ustida turibdi. Devordagi ichki tokchalarning burchaklari ravoq asosidan yasalgan, qirralar bilan bezatilgan tokchalar esa XI-XII asrlardagi yodgorliklar shakliga nisbat etilgan. Sodda, uncha aniq bo'lmagan, ba'zan aralash shaklli bu masjid XVII asrdan burunroq qurilgan deyishga imkon bermaydi. Old tomondagi minora esa terib olingan eski g'ishtlardan qurilgan, ular orasida Kasbidagi vayron bo'lgan imoratlarning mayda, o'rta asrga oid g'ishtlari ham uchraydi. Minora ulkan emas, tanasi yuqoriga qarab ingichkalashib boradi, tepasida muazzinxona bor. Bu yerda fonarning diametri minora tanasidan kichikroq, bu XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga xosdir. Uning pastki qismi bir necha marta ta'mir etilgan. Bu masjid aslida Sulton Mirhaydar kompleksidagi juma masjidi xizmatini o'tagan deyish mumkin, chunki Kasbi qishlog'idan 1-2 kilometr g'arbroqda yana bitta namozgoh masjid saqlanib qolgan.

Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, u 370 yil burun, ya'ni XVI-XVII asrlar bo'sag'asida qurilgan. Rejaga ko'ra, bino to'g'ri burchakli, uning bir-biriga o'tadigan besh gumbazli xonalari fasad oldidagi juda keng sahnga qaratib solingan. Gumbazlarning asosi bir xilda, o'rtadagi xona bir oz kengroq va mehrob taxmoni besh qirrali bo'lib, tashqariga turtib chiqqan. Masjidning yengil, hajmdor shakli, tuzilishi va bezaklarining o'ziga xosligi bu obida XVI-XVII asrlarda bunyod etilgan deb ko'rsatishga imkon beradi. Sulton Mir Haydar majmuasidagi qabr ustiga qo'yilgan to'q kulrang marmar sag'anada uning hijriy 897 yilda (milodiy 1491) qo'yilgani bitilgan. Maqbara yonidagi minora XIX-XX asrga tegishli hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, Sulton Mir Haydar maqbaralar majmuining qurilish uslubi Shahrisabzdagi Dor us-saodat, Kosondagi Qusam Shayx ansambliga o'xshaydi. Bu uslub XIV asrga xos bo'lib, Temuriylar me'morchilik uslubini takrorlaydi.

Hazrati Sulton ziyoratgohi hudidiga olib boruvchi yo'llarga so'ngi yillarda qanday islohotlar va qurilish ishlari amalga oshirildi.

- 1) Ziyoratga eltuvchi yo'llar tamirlandi asfalt yo'llar barpo etildi.
- 2) Yo'llarga aholini qiynalmasligi uchun chiroqlar o'rnatildi.

3) Ziyoratgohga tashrif buyurgan ziyoratchilar uchun masjid va taxoratxonalar qurildi .

4) Ziyoratchilar uchun dam olish maskanlari barpo etildi.

Bunday o'zgarishlar O'zbekiston respublikasida ziyorat turizmini shakllanishiga va turistlar sonini ortishiga tasir ko'rsatmoqda.

Mahalliy aholiga turizmni rivojlantirishda qanday imkoniyatlar yaratildi .

1) Savdo ishlari yo'lga qo'yish va milliy taomlar tayyorlash .

2) Homestay yani uy mahmonxona xizmatini tashkil etish.

3) Mahalliy aholi qo'l mehnati bilan tayyorlagan mahsulotlarini savdoga chiqarishi.

4) turistlarga gidlik qilish xizmatlari.

Kasbi tumaning iqtisodiy salohiyatini oshirishga va rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Muqaddas qadamjoga tashrif buyuruvchilar uchun ko'p jihatlari va jozibas;

1) Tarixiy va ma'naviy ahamiyati: ancha yillar avval bunyod bo'lgan qadajo va insonlar ruxini poklash uchun zarur joy .

2) tabiiy muhiti: Tuman salqin va yashil tabiati bilan uyg'un tarzda ziyorat yo'nalishi yaratishga sharoit yaratib beradi.

3) Madaniy marosimlar :tumanda diniy marosimlar,juma nomozlari va shu bilan birgalikda Qur'on tilovatlari qanchadan qancha sayyohlarni o'ziga jalb etadi .

Asosiy muammolar; Kasbi tumani Qashqadaryo viloyatining chekka hududida joylashganligi sababli reklama xizmati sust olib boriladi. Kasbi tumani rivojlanayotgan tuman sirasiga kiradi va sayyohlar dam olishi uchun dam olish maskani va mehmonxonalar juda kam. Sayyohlarga ziyoratni tuzilishini tarixini tanishtirish uchun gidlar soni kam va yetishmaydi. Takidlab o'tganimdek chekka hudud bo'lganligi sabab onlayn aloqa sust va onlayn baza Malumotlar mavjud emas.

1. Hudud tuzilishi va barcha malumotlar kiritilgan rasmiy turistik portal yaratish.

2. Ziyoratgohni onlayn malumotlari bazasini yaratish

3. Kasbi tumanida yosh gidlar uchun maxsus trening tashkil etish.

4. Ziyoratgohni ekalogik jihatini yaxshilash va turizm sohasini rivojlanishiga alohida etibor berish .

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi Hazrati Sulton ziyoratgohi turizmni rivojlantirishni asosiy omili hisoblanadi .Statistika va tadqiqot qilinganga shuni ko'rsatmoqdaki, oxirgi yillarda amalga oshirilgan diniy ma'naviy ishlar ziyoratgoh atrofini va ichki qismlarida obadonlashtirish ishlari amalga oshirildi, va Kasbi tumanini iqtisodiy rivojlanishini orttirdi va sezilarli darajada jadallashtirdi .Hazrati Sulton ziyoratgohi turizmini rivojlanishi ,Kasbi tumanida savdo majmualarini ko'payishi ,rivojlanishi va mahalliy aholini bandligini oshirish va o'z o'zini ish bilan taminlash ,

hunarmandchilikni yanada rivojlanishiga olib keldi .Bu kabi jarayonlar tumanda zamonaviy turizm xizmatini joriy etish ,tuman infratuzilmasini moderinizatsiya qilish orqali investitsion jozibadorligini kuchaytiradi Kasbi tumanida ziyoratlarni yanada rivojlantirish va turizmni kengaytirish hududni ma'naviy qadriyatlari, madaniy merosi va iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga hizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Choriyev A. Hazrati Sulton Mir Haydar ota manoqibi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
2. Ravshanov P. Sulton Mir Haydar ota darajoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2014.
3. Qurbonov P. R., Safarov I. B. Ziyorat turizmining iqtisodiy geografik jihatlari //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 357-362.
4. Safarov I. B. Developing in Mubarak district pilgrimage tourism //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-2 (120). – С. 590-593.
5. Safarov I. B. et al. Ziyorat turizmini rivojlantirishda gat texnologiyalarining o'rni //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-1 (131). – С. 502-505.
6. Safarov I. B., Chorshamiyev R. R. Guzor tumani ziyoratgohlar maskani //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 609-616.
7. Safarov I. B., Abdishukurova M. A. Ziyorat turizmining geografik jihatlari //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 64. – №. 4. – С. 215-219.
8. Qurbonov P. R. Iqlim o'zgarishi sharoitida tekislik mintaqasi shaharlarining rivojlanish xususiyatlari (Janubiy O'zbekiston misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 210-214.